

Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences

OKTOBER 15

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

TASAVVUF TA'LIMOTI VA G'ARB ADABIYOTI

Umurova Nigina Raximovna

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq adabiyotining, xususan, 8-9-asrlarda vujudga kelgan tasavvuf ta'limotining g`arb adabiyotiga ta'siri manbalar asosida tahlil qilinadi. G`arb olimlarining tasavvuf ta'limotiga nisbatan munosabatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Sharq va G`arb, tasavvuf, so'fiylik, tariqat, motiv.

“Hech qachon hech qaysi xalq, elat boshqa xalqlardan uzilib qolgan, o‘z holicha yashagan emas, aks holda hech qanday taraqqiyot bo‘lmagan bo‘lar edi”-, deydi olima Fozila Sulaymonova “Sharq va G‘arb” asarlarida.¹ Darhaqiqat, sharq va g`arb nafaqat adabiy, balki madaniy, ijtimoiy, ma’naviy, iqtisodiy aloqalar dunyo tamaddunida tadrijiy taraqqiyotni bosib o‘tdi. Ilk davrlardanoq sharq falsafasi g`arb madaniyati, falsafiy dunyoqarashiga, ilm-fanga ta’sir etgan. Farg’oni, Farobi, Ibn Sino, Ibn Rushd asarlari tarjima qilingan va tadqiq etilgan, darslik sifatida o‘rganilgan. Yevropalik olimlar bir qancha tadqiqotlarida bu haqiqatni isbotlashgan. Xususan, italiyalik sharqshunos I.N.Golenishev-Kutuzov xalifalik davrida faylasuf, matematik, mutafakkirlar maktablari rivojlandi, ular ilm-fanning beqiyos ravnaqini ta’minladilar. Samarqanddan Toledogacha madaniy taraqqiyot yo‘li vujudga keldi. Fransuz olimi Gyuining ta’kidlashicha, Yevropada 12-13-asrlarda sharq olimlari asarlari tarjima qilingan va ilm ahliga yoyilgan, buning natijasida Yevropa universitetlarida sharq tillari kafedralari tashkil etladi. Musulmon sharqi 8-11-asrlarda g`arbdan oldinda edi. Chunki g`arb olimlari musulmon olimlari va tabiblaridan saboq olishgan, sharqdagi moddiy va ma’naviy har qanday narsa ularni qiziqtirgan. Ilm-fan ta’siri xususida yuqorida fikrlarimizni bayon etdk. Endi Islom dini va tasavvuf ta'limotining ta'siri va aynan shu ruhda yozilgan asarlar haqida fikrlashamiz.

Ma'lumki, Islom dini 7-asrda arablar zaminida shakllangan eng haq din sanaladi. Faqat haqiqatga yo‘g`rilgan bu sof dinning asoschisi sifatida payg`ambar Muhammad SAVni bilamiz. Olloh kalomi Qur`oni Karim va payg`ambarimiz amallari va aytgan so‘zlari bitilgan kitob bu Hadisi Sharifdir. Islom dining dunyo bo‘ylab yoyilishi juda ko‘p asrlarni va murakkab davrlarni tashkil etadiki, bunga tarix guvoh. Dastlab, sharq aro, Markaziy Osiyo hududida tarqalgan Islom dini Yepropaga 8-asrda kirib keldi. Ilk fath etilgan Yevropa davlati bu Ispaniyada tashkil etilgan amirlik edi. Bu tarixiy jarayonlar g`arbaro Islomning tarqalishida katta ahamiyat kasb etdi.

Islomona ruh, tasavvuf adabiyoti g`arb adabiyotida alohida hodisa sifatida kirib kelgan, g`arb ijodkorlarini ilhomlanligan. So‘fiyona g`azzallardan, so‘fiyona dunyoqarashdan ta’sirlangan adiblar asarida sharqona g`oyalar o‘z aksini topgan. Shunday asarlardan biri yuqorida ta’kidlab o‘tganimiz Gyotening Mag’rib va Mashriq devoni asaridir. Hofiz va Sa’diyning so‘fiyona qarashlaridan, nafis va go‘zal satrlaridan ta’sirlangan Gyote devonining butun mundarijasi sharqona atalgani ham fikrimiz isbotidir. Sharq tasavvuf ta'limotini blish uchun nafaqat Islom dinini, balki Rumi, Hofiz, Sa’diy, Navoiy ijodlaridan boxabar bo‘lish kerak. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Gyote so‘fiylik ta'limoti bilan Hammering “Fors suxandonligi” asari bilan tanishadi. Va buni o‘z she’riyatiga ohangdosh tarzda tasavvur etadi. Ma'lumki, Gyote

¹Сулаймонова Ф. Шарқ ва Гарб. Т.: Ўзбекистон, 1997, 10 б.

Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences

OKTOBER 15

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

devonining oltinchi bobi “Hikmatnoma”dir. Ushbu bobdagi ayrim she’rlar muallifning tasavvuf ta’limotidan xabardorligini aks etadi.

Taqdir imtihon etsa gung bo‘l, odamzod

Foyda bermas aylamak ming dod-u faryod.

So‘fiylikda sabr eng muhim fazilatlardan biri hisoblanadi. Inson boshiga tushgan har qanday kulfatga sabr qilishi, Ollohga shukrona qilishi lozim. Chunki har qanday yaxshilik va yomonlik Xudodan. Buni so‘fiy imtihon deb qabul qilishi kerak. Bundan tashqari asarda shunday tasavvufiy ruhda yozilgan to‘rtlik borki, bu fikrimizga yorqin dalildir.

O‘rgimchakni o‘ldirib

G`oyat g`amgin bo‘ldim, ajabo

Unga hayot bergen-ku Xudo

Haqli menday yashashga u ham

Bu she’r tasavvufdagi bir jumlani eslatadi: “shariat aytadur o‘ldir ilonni, tariqat aytadur og`ritma jonni”. Asardan bunday misollarni ko‘plab topish mumkin. Hatto Gyote adabiy aloqada muhim shakl bo‘lgan tatabbu’, nazira she’rlar bitgan, Hofiz g`azaliga nazira bog`lagan. Sa’diyning nafas haqidagi g`azalidan ta’sirlanib she’r yozgan. Mazkur ikki qutb tafakkurini birlashtirib turuvchi devonda Hofiz, Sa’diy, Rumiy, Navoiy, Jomiy kabi mutasavvuf mumtoz shoirlarimizning so‘fiyona qarashlarini va Payg`ambarimiz Muhammad SAV haqlaridagi baytlardan bahramand bo‘lishimiz mumkin.

Islom dinining rahnamosi payg`ambarimiz bosh obraz sifatida gavdalangan asarlar ham jhon adabiyotida muhim ahamiyet kasb etadi. Ammo barcha g`arb ijodkorlari ham u kishi haqlarida ijobjiy asar yozmagan. Afsuski, Italiya uyg`onish davri vakili Dante va Volter kabi adiblar fikrimizga misoldir. Albatta, buning o‘ziga xos subyektiv sabablari mavjudki, buni tan olish lozim. O‘rta asrlar xristian madaniyati bunga yo‘l qo‘ymagan va Islomning dushmanlari ijodkorlar ongini ham zaharlagan. Aynan Dantening O‘z asarida Muhammad SAV va Hazrat Ali r.a.ni Jannatda tasvirlamaganiga olim, professor Uzoq Jo‘raqulov tadqiqotlarida salbiy munosabat bildiradilar. Volter ham “Muhammad va Zaira” asarida o‘ta subyektiv va noo‘rin fikrlar bildirilgani doim ham sharq madaniyatining xolis anglanmaganligidan dalolat beradi. Biroq shunday asarlar borki, har qanday mafkuradan holi tarzda, obyektiv munosabatda yozilgan. Shulardan ingliz yozuvchisi, gumanist ijodkot Bernard Shoudir. Nobel mukofoti laureati Islom dini va Elchisi haqida shu qadar xolis, go‘zal fikrlar bildiradiki, bu tahsinga loyiq! Quyida berilgan misollar fikrimizning yorqin isbotidir.

Hayrat beruvchi quvvatga ega bo‘lgani uchun Muhammad diniga nisbatan anchadan beri chuqrur hurmat bilan qarayman. Menga shunday tuyuladiki, Islom dini tinmay o‘zgarayotgan hayotning turli lavhalariga va har davrga mos keladigan fikrlari bor yagona dindir. Mendek mashhur kishilarning kelajak haqidagi fikr va tushunchalariga ahamiyat berish kerak. Men Islomiyatni ertangi Yevropa qabul qilishini so‘yladim. O‘rta asrdagi cherkov o‘z hasadlari va johilliklari sababli Islomiyatni qora ranglar bilan tasvirladi. Ular Muhammad (s.a.v.) va uning dinidan ham nafratlanish ruhida tarbiyalandilar. Ularning nazdida Muhammad (s.a.v.) “Antixrist” (Isoning dushmani) emish.²

Muallif islom dinining haqiqatligini, boshqa dinlarning mukammlal davomi ekanligini, oxirzamon payg`ambarining so‘zlarini anglaganlini tushunamiz. Islom dinida iymon shartlaridan biri barcha payg`ambarlarga ishonishdir. Ammo zamonning johillari Islom dushmanlari Muhammad SAVni nasroniyalar rahnamosi Isoning dushmani deb hisoblaydilar. Har qanday mustabid mafkura qobig`ini yorib chiqolgan Bernard Shou buning xato ekanligini o‘z

²www.khurshiddavronkutubxonasi.uz

Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences

OKTOBER 15

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

hikmatlarida ifoda etgan.

“Muhammad SAV. Bu favqulodda insonning ajoyib hayotini o‘rgandim. U Iso dushmani emas, balki butun insoniyatning qutqaruvchisidir. Agar unga o‘xshagan biror inson bugungi dunyoning boshqaruvini qo‘liga olsa, aniq ishonamanki, insoniyatni tinchlik va saodatga eltadi.” Garchi muallif buni badiiy asar emas, balki esse shaklida yozgan bo‘lsa-da, bu fikrlar keyinchalik boshqa g`arb ijodkorlari asarlarida badiiy ifoda etildi. Islom tarixidan ma’lumki, ushbu din dunyo uchun zarurat va ehtiyoj kuchli tug`ilgan paytda nozil bo‘ldi. Insoniyat uchun to‘g`ri turmush tarsi yaratishda muhim dasturilamal edi. Shuning uchun Shou axloqsiz jamiyatni Islom dinigina tartibga solishini ta’kidlaydi: “U Hijoz mintaqasi aholisini qabilaviy jang-jadallar changalidan qutqardi. Ularni milliy birdamlikka erishtirdi. U safsata sotuvchi mast-alast qavmni parhezkor qavmga, qonunsiz bir jamiyatni tartib-intizomli jamiyatga, axloqsiz tuban hayotni eng oliv insoniy axloq-odob hukmron bo‘lgan jamiyatga aylantirdi”. Insoniyatni birdamlikka, tinchlikka, pok yashashga, axloqiy soflikka chorlovchi g`oyalar majmui faqat islomda mavjudligini ushbu fikrlar isbotlaydi. “Mabodo biror bir din keyingi 100 yil mobaynida Angliyani, qolaversa, butun Yevropani boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lsa, bu faqatgina Islom bo‘lishi mumkin.” Bu satrlar, bu iqrorlar g`arb adabiyotining ijodlarida badiiy haqiqat sifatida gavdalantirildi. Bunga misol qilib, modern adabiyotining yorqin vakili Jeyms Joys o‘zining mashhur “Uliss” romanida ilohiy-irfoniy g`oyalarni badiiy akslantirganini aytish mumkin. Rus adabiyoti vakili Lev Nikolayevich Tolstoy “Iqrornoma” asarida, “Hazrat Muhammad hadislari” nomi ostida chop ettirgan saylanmasida aynan islomiy qarashlar hukmron edi.

“Din yagonadir, ammo uning yuzlab qiyofasi bor”. Bernard Shouning ushbu e’tirofi so‘fiyalarimiz ta’kidlagan barcha tariqatlar, barcha yo‘llar yagona maqsadga bo‘ysunadi, muddao bir degan qarashga hamohangdir.³

Ta’kidlab o‘tganimizdek, islom dini va tasavvuf ta’limotining g`arb adabiyotiga ta’siri beqiyos bo‘lgan. Tasavvuf ta’limoti Islom dini zaminida vujudga kelgan, nafsni tarbiyalovchi, ruhni poklovchi, komillikka eltvuchi ta’limot sanaladi. 8-asrda Iroqda paydo bo‘lgan tasavvuf asrlar osha o‘z tamoyillariga ega bo‘ldi, turli tadrijiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Tasavvufning mohiyati insoniy kamolot va Ollohga yetishishdir. Sharq tasavvufi xususida fikrlashishdan avval g`arbda ham shunga o‘xshash ta’limot bo‘lganmi degan savolga javob izlasak, masalaning mohiyatiga yanada chuqurroq yetamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Комилов Н. Тасаввуд. Биринчи китоб.- Тошкент: Абдулла Кодирий номидаги халк мероси нашриёти, 1994.- 88 б.
2. Комилов Н. Тасаввуд. Иккинчи китоб. Тавхид асрори.- Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат хамда “Ўзбекистон” нашриётлари, 1999.
3. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. Т.: Маянвият, 1999
4. Конрад М. И. Запад. Восток. Москва: Главная редакция восточная литература, 1972.
5. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Гарб. Т.: Ўзбекистон, 1997
6. Файзуллоҳ Вафо, Ҷақмоқ ёруғи. Тошкент: “Шарқ”, 2012. – 77 б
7. Мустанов К. Л.Н.Толстойнинг ҳадисларга муносабати//Ўзбек тили ва адабиёти. 2004-йил, 5-сон.

³www.khurshiddavronkutubxonasi.uz